

## O'ZBEKISTON MILLIY ME'MORCHILIGI VA MUSTAQILLIK DAVRI ME'MORIY OBIDALARI

Raxmonov Saydullo Murodjon o'g'li

Andijon davlat Pedagogika instituti Tasviriy san'at va muhandislik  
grafikasi yo'nalshi talabasi.

E-mail: [raxmonovsaydullo406@gmail.com](mailto:raxmonovsaydullo406@gmail.com)

Telefon: +998991708343

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8265657>

**ANNOTATSIYA:** Maqolada ibtidoiy jamoa davridagi ilk uy-joy qurilishi, tobora insonlarni ongi rivolanishi va dastlabki shoh shabbadan, loydan, g'isht va shunga o'xshash narsalardan o'zlariga uy-joy qurilishi haqida bir qancha ma'lumotlar keltirilgan. Hududdan topilgan turli eng qadimiy san'at yodgorliklari sur'atlari va o'sha davrdagi tarixiy me'moriy yodgorlikar keltirilgan. Qolaversa mustaqilik sharofati bilan milliy me'morichilikni yanada rivojlanganligi, yangidan-yangi zamonaviy binolar qurilishi yanada rivojlanib borganligi ko'rishimiz mumkin. Shu bilan bir qatorada tarixi binolarni restavratsiya qilinganligini ko'ramiz.

Prezidentimiz tomonidan bir qancha farmon va qarorlar zamonaviy uy-joylar qurish, eskilarini restavrasha qilishi, shu bilan birga yangidan yangi kollej va litseylar qad ko'targaligi haqida bir qancha ma'lumotlar berigan. Shu bilan birgallikda qo'shni davlatlar aro temir yo'llarni yo'lga qo'yilganligi haqida bir qancha ma'lumot keltirilgan.

Maqolada arxitektura va shaharsozlik masalalariga katta ahamiyat berildi. Mustaqillikdan keyin milliy uslubda memorchilik binolari qurilishi tobora yanada rivojlanganli ko'rsatilgan. Zamonaviy arxitektura va dizaynga katta e'tibor berib kelinmoqda. Buning uchun barchamiz o'z tariximizni yaxshi anglagan \olda me'moriy obidalarni bunyodkorligi uchun xissamizni qo'shishimiz kerak buladi. Maqolada shunga oid bir qator ma'lumotlar keltirib o'tilgan.

**Kalit so'zi:** Minorai Kalon, Afrosiyob, Varaxsha, Monumental, Maqbara, Minora, Naqshinkor, Poyi Kalon, me'moriy ansambl, muhandislik, arxitektura, ornamentli pardozlash, fasad, plastik ishlov berish, ganch, yog'och o'ymakorligi.

Me'morichilknining vazifasi inson hayoti va faoliyatini uchun munosib fazoviy muhitni tashkil qilishdir. Bu vazifa moddiy struktura qurilayotgan va ta'minlanayotgan binolar va inshoatlar orqali hal etiladi. Arxitekturaning ijtimoiy va g'oyaviy rivojlanish jarayonida uning funksiyasi va binolar konstruksiyalar orqali turlicha ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati bilan o'z taraqqiyotining yangi davriga kirdi. Xalqimiz o'zi o'zining boy tarixiy madaniy va manaviy merosiga ega bo'ldi. Ming ming yillik me'morichilik va shaharsozlik tariximizni xattoki borib ko'rish bilan birga arxitekturaviy yodgorliklarni nafaqat ziyyarat qilish, balki ularni o'rganishga va restovratsiya qilishga ham keng imkoniyatlar yaratildi.

*Ibtidoiy jamoa davri me'morichiligi.* Qurilish faoliyatining boshlanishi paleolit zamonasiga borib taqaladi. U davr insonlarning tashqi muhit noqulayliklari va yovvoyi hayvonlarning ta'sirlaridan o'zlarini muhofaza qilish uchun oddiy tosh qurollari yordamida dastlabki turar joylarni tiklashlari bilan bog'liqdir. Yog'och mavjud bo'lgan hududlarda esa odatda shox-shabbalar bilan yopilgan yerto'lalar, ikki qiyali yoki konussimon shakldagi yopmalardan iborat alohida turuvchi chaylalar qurilgan.

*Milliy me'morichilik tarixi va me'moriy yodgorliklar.* O'zbekiston Respublikasi hududida me'morichilik va binokorlik qadim zamonlardan miloddan avvalgi III minginchil yil, ba'zi ma'lumotlarga ko'ra esa X minginchil yillardan boshlangan deyilgan. Qal'alar balandlik

joylarida qurilib, tashqi yovlardan mudofaa vazifasini o'tagan. Hozirgi kunda ham 400 ga yaqin qal'alarining qoldiqlari O'zbekiston hududida mavjuddir.

O'zbekiston hududida topilgan eng qadimiy san'at yodgorliklari Zarautsoy sur'atlari mezolit davriga mansub bo'lib. Kaltaminor madaniyati namunalari neolit davrining san'ati haqida tasavvur beradi. So'x Farg'ona vodiysidan topilgan ikki ilonning boshi bir-biriga qaratib, bilaguzuksimon qilib ishlangan yirik tosh haykal yaratilgan.

Milodgacha bo'lган I ming yillikda Baqtriya, So'g'd, Xorazm kabi haqiqiy shaharlar vujudga kela boshlaydi. To'g'ri burchakli yoki doira shakliga ega konstruksiyalar qal'a devorlarini mustahkamlangan. Devor ortida esa xavfli harbiy harakatlar kunlarida shahar aholisini boshipana va himoya bilan ta'minlash mumkin bo'lган inshootlar bunyod etilgan. Amudaryo o'rta qismining o'ng sohilida topilgan zaxirasi ko'p bo'lган ohaktosh arxitektura bezaklari haykaltaroshlikda ko'p ishlatalgan. Loydan tayyorlab qizdirib pishirilgan haykallar, shuningdek, devoriy rasmlar xorazmlik san'atkirlarning yuksak mahoratidan darak beragan. Afrosiyob, Varaxsha, Panjikentdagi arxeologik qazish ishlari turar-joy binolari aralash tartibda qurilganligini ko'rsatdi. Uylar 2-3 qavatli bo'lib ularni naqshinkor usuldagagi yog'och o'ymakorligi qo'llanilgan va yashashga mo'ljallangan qismi qabulxona yokiyo mehmonxona bir-biridan ajralib turgan. O'zbekiston hududi me'morchiligi uzoq tarixidan keltirilgan tasvir ham guvohlik beradi. Monumental binolarda toq-gumbaz konstruksiyalari keng qo'llanilgan. Ba'zan bino devorlari xom g'ishtdan, tomi gumbazi tashqi tomondan pishiq g'ishtdan ishlangan yokiyo xom g'ishtdan ishlangan devor pishiq g'isht bilan qoplangan va mustahkamlangan.

1966-1974-yillarda Toshkent poytaxtning bosh maydoni barpo etildigan. Poytaxtning bosh maydoni tubdan yangilandi, maydon hududi xalqning dam olish uchun chiroylik holatga keltiriladi. Maydonning bosh darvozasi sharq tomonda joylashgan. Maydonning janubida Vazirlar mahkamasi, g'arbida Senat binolari, shimoliy tomonida esa Motamsaro ona haykali va ikkinchi jahon urushida qahramonona halok bo'lган o'zbekistonliklar xotirasiga bag'ishlangan me'moriy yodgorlik bunyod etildi.


Markazda qurilgan ko'pgina binolar orasida muzey joylashgan avvalgi 19 qavatli vazirliklar binosi 2006-2007-yillarda yangidan rekonstruksiya qilinib, bir necha qavati olib tashlandi. Me'morchilik birmuncha taraqqiy qilgan, qurilishda estetik sifatga ahamiyat berilgan.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillik sharofati bilan o'z taraqqiyotining yangi davri keladi. Xalqimiz o'zining boy tarixiy, madaniy va ma'naviy merosiga ega bo'ldi. Arxitektura yodgorliklarini o'rganish va ta'mirlash restavratsiya qilish ishlari san'ati darajasida rivojlangan.

Respublikani Samarqand shahrini 2750 yillik, Buxoro, Xiva va Termiz shaharlarining 2500 yillik, Shahrisabzning 2700 yillik, Toshkent shaharlarini 2200 yillik, Marg'ilon shaharining 2000 yillik yubileyлari nishonlandi. Buyuk sohibqiron va atoqli davlat arbobi Amir Temur, jahonga mashhur Alisher Navoiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali-ibn Sino, al-Xorazmiy, Ahmad Farg'oniy, Marg'inoniy, Imom al-Buxoriy, Bahouddin Naqshbandiy, Abduxoliq G'ijduvoniy, Najmiddin Kubro, Imom al-Moturdiy, Jaloliddin Manguberdi singari vatandoshlarimizning qadamjolari zamonamizdan kelajak avlodlarga meros bo'lib qoladigan darajada yangilandi. 2007 yilda Islom madaniyatining poytaxti deb tan olingen va Toshkent shahrida milliy bezakchilik san'atini o'zida joetgan «Hastimorn» masjidi bunyodetildi.

*Ismoil Somoniy maqbarasi.* Markaziy Osiyo aholisiga islom dinini qabul qildirilishi, Somoniylar davrida uni davlat dini sifatida shakllanishi va mahalliy xalq uchun uni e'tiqodga aylantirilishi arxitekturada ham, binokorlikda ham o'z aksini topgan. Gumbazsimon tomyopma konstruksiyalaridan foydalanish juda ham rivojlangan. 1-rasmda, o'sha davrdan hozirgacha saqlanib katta ahamiyatga ega bo'lgan nodir va noyob inshootlar me'moriy yodgorliklardan biri Ismoil Somoniy maqbarasidir.

Har tomonlama maqbaraning barcha fasadlari bir xilda qurilgan. Devorlar ichkari va tashqi tomondan bezakli qilib yuqori sifatli pishgan g'ishtdan bejirim terilgan, qurilishda o'ymakorlik usullaridan ham foydalanilgan. Zaruriyati tug'ilgan gumbazli yopmalarni ishlatalishning ijobjiy tomonlari ko'pdir o'sha davrda uzoq vaqtga chidaydigan konstruksiyalarning egilish qismlarida ham yaxshi ishlaydigan temirbetonga o'xshagan buyum va konstruksiyalar deyarli mavjud bo'lмаган. Quyosh nuri gumbazli toming faqat qaysidir bir bo'lakchasiga tik tushib, o'sha qisminigina ko'p isitadi, shu vaqtda gumbazli yopmaning qolgan qismlariga radiatsiya tik tushmaydi va torn ko'p isimaydi. Markaziy Osiyo me'morchiligida ham yangi stil, yangi shakl va yangi yechimlarni yaratishning keyingi taraqqiyotini aniqlab bergan.



2-rasm.

Minorai Kalon, Buxorodagi Minorai Kalonning barpo etilish vaqtini va Rabot Malik karvonsaroyining qurilish davri Qoraxoniyalar davriga to'g'ri keladi. Minorai Kalon jahon me'morchiligining, me'moriy muxandislik san'atining yuksak cho'qqiga chiqqan asarlaridan hisoblanadi. Keyinchalik buyerda Poyi Kalon me'moriy ansambl shakllangan. Minoraga noyob shakl berilgan bo'lib, poypeshi qirrador, tanasi konussimon shaklda, yuqoriga qarab toraya boradi, muqarnasli qafasa bilan tugaydi. Balandligi 50 m (ba'zi adabiyotlarda 46 m, ba'zi manbalarda 47 m degan ma'lumotlar keltirilgan), devorlarini qalinligi 0,8-0,9 m, poydevor chuqurligi 10 m

gacha ketgan. Poypesh qismida inshootning doira diametri 9 m ni tashkil etadi. Minora ichidagi 105 pog'onadan iborat boigan aylanma zina-rotonda orqali uning tepasiga chiqiladi. Minoraning tepasida ichidagi zinapoyani yoritish uchun 16 ravoqli darchalar o'rnatilgan, ular orqali atrofni kuzatish mumkin. 2-rasmda naqshinkor tarzda 1127-yilda bunyod etilgan Minorai Kalonning umumiy ko'rinish mumkin.

Poyi Kalon me'moriy ansamblining, shujumladan Minorai Kalonning umumiy ko'rinishi, orqaroqda Toqi Zargaron, undan keyin Ulug'bek chap qolda va Abdulazizzon o'ng qo'lda madrasalari joylashgan. Poyi Kalon me moriy ansambl Orqada Ark qal'asi qurilgan. Minoraning o'zagi ham, bezagi ham chorsu g'ishtdan (27x27x4-5 sm) terilgan. Bezak g'ishtlar turli shakllarda yo'nilib, sirti silliq pardozlangan. Ustma-ust joylashgan turli xil geometrik shakldagi bejirim halqlar g'ishtin dandanalar bilan hoshiyalangan.

*O'zbekiston mustaqillik davri me'morchiligi.*

1991-yil 31-avgustda O'zbekiston Respublikasining mustaqilligi qo'lga kiritilgach, hayotning barcha jabhalarida tub o'zgarishlar ro'y berdi. 2002-yilda Oliy Majlis tomonidan qabul qilingan «Shaharsozlik» kodeksi kuchga kirdi. 2003-yil 6-mayda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Kapital qurilishda iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirishning asosiy

yo'nalishlari to'g'risida» gi farmoni, Vazirlar Mahkamasining qator qarorlari qabul qilindi va qurilish tizimi mexanizmi tubdan o'zgartirildi. Qo'shni davlat hududidan o'tgan 423 km li temir yo'li o'rniqa «Navoiy-Uchquduq-Sultonuздag-Nukus» temir yo'li (358,1 km) Amudaryo ustidagi zamonaviy ko'prigi qurildi. 2004-yil mart oyida foydalanishga topshirildi. Bunga misol sifatida Amudaryo ustida barpo etilgan zamonaviy ko'prik ko'rishimiz mumkin.

Mustaqilikdan keyin yangi zamonaviy temir yo'l qurilishi tufayli respublika ichida yuk tashish harajatlari hisobidan yiliga 20 mln AQSh dolloridan ortiq, xalqaro yuk tashish inobatga olinadigan bo'lsa, 36 mln AQSh dolloridan ortiq mablag' tejalib qolinmoqda. Bu temir yo'lning loyihibiy uzunligi 221,6 km ni tashkil etadi. Tog'li noqulay va murakkab sharoitdan, balandlik va egriliklardan o'tgan yo'lning umumiyligi uzunligi 123 km ni tashkil etadi. Bu muhandislik inshooti tog'li hududlarda qurilgan O'zbekistonning birinchi temir yo'l sifatida tarix sahifalariga bitildi. 3-rasm. Termiz shahrining yangi temir yo'l vokzali hudud iqlim sharoitdan kelib chiqib qurilgan.

Mustaqillik yillarda zamonaviy va ravon sement-beton qoplamlari yo'llar, "Toshkent-O'sh" avtomobil yo'lining «Qamchiq» va «Rezak» devonlarida 2,5 km li tunnellar turgan holda, yo'llarning 94-214-kmlari qayta qurildi. Tog'lardagi egri-bugri, qiya avtomobil yo'lla

Mustaqillik qo'lga kiritilgandan keyin milliy me'morchilik va shaharsozlikning rivoj lanishiga ham keng yo'lar ochildi. Arxitektura va shaharsozlik masalalariga katta ahamiyat berildi.



YUNESKO ning butun insoniyat uchun beba bo'lgan tarixiy shaharlari ro'yxatidan o'r'in egallagan. 2007-yilda Toshkent shahri islom madaniyatining poytaxti deb e'lon qilindi. Toshkentda milliy uslubda yangi qurilgan Hazrati Imom masjidining umumiyligi ko'rinishi. Milliy uslubda baraban shaklida bajarilgan proyomli gumbazning ichki ko'rinishi.

Respublikani Toshkent, Shahrisabz va Samarcand shaharlariga Amir Temur haykallari o'rnatildi. 4-rasmda bu inshootlarning bunyod etilishida an'anaviy shakllar (arka,qobiqli hajm, gumbaz vahokazo) qo'llanildi va rivojlantirildi, bog'-rog'lar yaratish san'ati takomillashdi, arxitektura va

san'atning tarixiy an'anaviy bog'liqligi rivoj topdi, (ornamentli pardozlash, fasadlarga plastik ishlov berish, ganch, yog'och o'ymakorligi va hokazo). Toshkent, Shahrisabz va Samarcand shaharlariga o'rnatilgan Amir Temur haykalini ko'rishimiz mumkin.

1988-yili Umumjahon islom madaniyatiga ulkan hissa qo'shgan buyuk alloma Imom al-Buxoriy tavalludini 1225-yilligi nishonlandi. Prezidentimizning tashabbusi va rahbarligida, Poyariq tumanining Xo'ja Ismoil, Eski Xartang qishlog'ida qo'nim topgan allomaning qadam joylarida milliy uslubdag'i ulkan majmua bunyod etildi. Imom al-Buxoriy me'moriy majmuasi ichidagi maqbarasi milliy tarzda zamonavi qilib qurilgan.

Xulosa O'zbekiston milliy me'morchilik san'ati juda tez sur'atlar bilan yanada o'sgan. Arxitekturaning yashiringan yangidan yangi qirralari kashf etildi. Mustaqillik sharofati bilan yurtimizda hozirgi vaqtida rivojlangan demokratik mamlakatlar arxitekturasi yutuqlarini hisobga olgan holda, zamonaviy qurilish materiallari metall, beton, g'isht, yog'och, plastik, shisha singari zamonaviy materiallardan va konstruksiyalaridan oqilona foydalanilgan.

Tinimsiz izlanishlar olib borib, vaqt silsilasiga bardosh beradgan imoratlar qad ko'tara boshlagan.

Keyingi avlodlarga ham xizmat qila oladigan mustahkam, g'ururlansa arzigelik yangidan yangi binolar va inshootlar, nsambollarini yaratish, shahar va qishloqlarimizning yanada ko'rakm va obod qilish yo'lida yangidan-yangi zamonaviy har tomonlama qulay shinam uy-joylar kasb hunar kollejlari akademik litseylar va shunga o'xhash binolar yangi uslubda qurilgan.

### References:

1. Sh.R.Mirzayev. M.M.Vahitov. Me'morchilik 1-qism. Toshkent, 2012.
2. Sh.R.Mirzayev. M.M.Vahitov. Me'morchilik 2-qism. Toshkent, 2012.
3. M.M.Vahitov. Sh.R.Mirzayev. Me'morchilik 3-qism. Toshkent, 2012.
4. O.K.Apuhtin. Tasviriy san'at asoslari. Toshkent, 1967.
5. 5.M.M.Vohidov. Sh.R.Mirzayev. Binolar va inshoatlat konstruksiyalari. Toshkent, Mehnat, 2003.
6. Vohidov M.M. Buxoro arxitektura yodgorliklari. Buxoro, 2009.
7. Vohidov M.M. O'zbekiston milliy me'morchiligi. Buxoro, 2009.
8. I.M.Azimov. O'zbekiston naqshu-nigorlari. Toshkent, G'G'ulom nomidagi adabiyot va san'at nashriyoti, 1987.
9. Vohidov M.M. Xiva me'moriy obidalari. Buxoro, 2009.
10. Teshaboyev R.D. Fuqoroi binolarining me'morchilik konstruksiyalari va qismlari. Toshkent, o'qituvchi, 2012.
11. O'zbekiston arxitekturasi va qurilishi Toshkent, 2006, №3.
12. 12.O'zbekiston ensiklopediyasi 1-14 tomlar. Toshkent, 1971-1980.
13. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi. 1-12 tomlar. Toshkent, 200-2006.

